ganar ekan, ularni ikki sinfga ajratadi: kiritilgan va qo‘shma taklifli fe’llar. L.G.Babenko shunday deb yozadi: “Kiritilgan fe’lning sema tuzilishi bir emas, kamida ikkita predikativ o‘ringa ega bo‘ladi: asosiy aniqlovchi predikatning kategorial-leksik sema holatidagi o‘rni va kiritilgan predikatning differensial semaning holatini belgilovchi o‘rni. Bundan tashqari, asosiy va kiritilgan predikatlar odatda maqsad, sabab, natija, ta’sir, harakat usuli kabi mantiqiy munosabatlar bilan bog‘lanadi”.[1] Misol tariqasida, *himoya qilish* fe’lining asosiy ma’nosiga qarasak, *himoya qilmoq* fe’li tajovuz, hujum, dushmanlik va tahdid kabi harakatlardan himoya qilishni anglatadi[2]. Bu fe’l birikmasi retrospektiv ravishda ishlatiladi: himoya doimo avvalgi hujum, dushman tahdidi yoki yovuz harakatlar natijasida paydo bo‘ladi. Ushbu retrospektiv orientatsiya esa uning poliprositiv xarakterini belgilab beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi fe’llar o‘zbek tilining grammatik va semantik tizimida alohida o‘rin tutadi. Ularning aspektual belgilari – harakatning davomiyligi, boshlanishi yoki yakunlanganligini ifodalovchi vositalar orqali, hamda kategorial belgilari – zamon, mayl, shaxs va son kabi grammatik kategoriyalar doirasida ifodalanishi tildagi ma’no aniqligi va nutqdagi aniqlikni ta’minlaydi. Mazkur fe’llarning chuqur semantik qatlamlari ijtimoiy-psixologik mazmunni ochib berishga xizmat qiladi.

Maqolada olib borilgan morfologik va semantik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy munosabat fe’llarining o‘rganilishi nafaqat nazariy tilshunoslik uchun, balki amaliy tahlil va o‘qitish jarayonlari uchun ham dolzarbdir. Kelgusida bu turdagi fe’llarni korpus lingvistikasi, diskurs tahlili hamda pragmatik yondashuvlar asosida chuqurroq o‘rganish tilshunoslik sohasida yangi ilmiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Kabilova Zebiniso Murodovna (Andijon davlat Chet tillari insituti dotsenti, f.f.n.)

MATNNING FONOSEMANTIK TADQIQIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. *Undov va taqlid so‘zlardagi tovushlarning ohangdorligi ma’lum mazmun va maqsadga ega. Til uchun bunday holatlar tasodifiy hodisa emas. Undov va taqlid so‘zlarning aytilishi orqali ulardagi mazmun va maqsadni qiyinchiliksiz anglab olamiz. Demak, so‘z tarkibidagi tovushlarda ham qandaydir ma’no va maqsad yotadi. Albatta, tovushlarning ma’nodorlik xususiyatlarini kengroq yoritish, tadqiq etish ham murakkab, ham qiziqarlidir.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy tadqiqodlar, fon, fonosemantik vositalar, ohangdorlik, undov va taqlid so‘zlar.*

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О ФОНОСЕМАНТИЧЕСКОМ ИССЛЕДОВАНИИ ТЕКСТА

Аннотация. *Мелодичность звуков в восклицательных и подражательных словах имеет определенное значение и назначение. Подобные ситуации не являются случайным явлением для языка. По произношению восклицаний и подражательных слов мы легко можем понять их значение и цель. Итак, звуки в слове также имеют какое-то значение и цель. Конечно, более детальное изучение и исследование значимых свойств звуков – дело и сложное, и интересное.*

Ключевые слова: *современные исследования, фонология, фоносемантические средства, мелодичность, восклицательные и подражательные слова.*

SOME CONSIDERATIONS ON THE PHONO-SEMANIC RESEARCH OF THE TEXT

Annotation. *The melodiousness of sounds in exclamatory and imitative words has a certain meaning and purpose. Such cases are not a random phenomenon for the language. We can easily understand the meaning and purpose of exclamatory and imitative words by pronouncing them. Therefore, the sounds in the word also have some meaning and purpose. Of course, a broader coverage and study of the meaningful properties of sounds is both complex and interesting.*

Keywords: *Modern studies, background, phono-semantic means, melodiousness, exclamatory and imitative words.*

Kirish. O‘zbek tilshunosligida fonetik-stilistik vositalar, ularning hosil bo‘lish omillari, qo‘llanishi, ahamiyati kabi masalalar uslubiy jihatdan to‘la tadqiq etilmagan. Hozirgi zamon tilshunosligining yutuqlari fonostilistika sohasidagi ishlarni fonosemantika bilan bog‘lab kengroq o‘rganishni taqozo etadi. Biz borliqda mavjud bo‘lgan predmetlar nomlariga gohida e’tibor berib o‘ylab qolamiz, gohida esa aksincha. Agar

[1] Бабенко Л.Г. Глагол в системе языка и речевой деятельности: материалы научной лингвистической конференции. Ральский гос. унив., 1990, с. 157.

[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд (келтирилган адабиёт). 531-бет.

diqqat bilan ularning nomlanishi, yozilishi va aytilishiga e'tibor beradigan bo'lsak, oddiy lisoniy haqiqatga duch kelamiz. Bu qanday haqiqat? Tilimizdagi barcha so'zlar ma'lum bir ma'noga ega. Ma'no faqatgina so'zlarning o'zida emas, balki ular tarkibidagi tovushlarda, ularning talaffuzida ham zohir bo'ladi. Undov va taqlid so'zlardagi tovushlarning ohangdorligi ma'lum mazmun va maqsadga ega. Til uchun bunday holatlar tasodifiy hodisa emas. Undov va taqlid so'zlarning aytilishi orqali ulardagi mazmun va maqsadni qiyinchiliksiz anglab olamiz. Demak, so'z tarkibidagi tovushlarda ham qandaydir ma'no va maqsad yotadi. Albatta, tovushlarning ma'nodorlik xususiyatlarini kengroq yoritish, tadqiq etish ham murakkab, ham qiziqarlidir. So'zning fonetik ma'nosi uning boshqa (grammatik, lug'aviy, tushunchaviy) ma'nolaridan keskin farq qiladi. So'zning grammatik, lug'aviy, tushunchaviy ma'nolarini izohlab, tahlil qila olamiz. Biroq uning fonetik ma'nosi an'anaviy tahlil uslublariga bo'ysunmaydi. Shunday bo'lsa-da, fonetik ma'noni boshqa ma'nolarga qiyoslash mumkin ekan. Bunday vaziyatda belgi-xususiyatga oid ma'no aspekti yordam beradi. Masalan, yosh bolalarni "do'mbog'im, qo'zichog'im, munchog'im" deb erkalatishlarda belgi-xususiyatga oid ma'no ustun turadi. Chunki bolaning o'zi emas, balki uning qandayligi muhim ahamiyatga ega. Undov va taqlid so'zlardagina talaffuzning ma'noga nisbatan ta'siri kuchli ekanligi yaqqol seziladi.

Bizningcha, endi fonostilistik tadqiqotlar tovushlar takrori, assimilatsiyasi, cho'ziq-qisqaligi kabilar bilan chegaralanib qolmay, ulardagi aynan shu jihatga yo'naltirilishi lozimki, o'zbek tilshunosligida e'tibordan chetda qolib kelayotgan bu xil tadqiqotlar jahon tilshunosligida anchagina bo'lib «fonosemantika» deb ataluvchi yo'nalishga birikadi. Fonosemantik tadqiqotlar olib borish jarayonida taqlidlar va ramzlarni farqlash lozim. Ular fonosemantik tadqiqotlarning asosiy materialidir. Umuman, taqlid so'zlarning har qanday turi (tovushga taqlid, tasvirga taqlid)da fonosemantik motiv kuchli bo'ladi. Bir leksik-semantik guruhga kiritilsa-da, fonosemantik tadqiqotlarga ko'pincha tovushga taqlidlar tortiladi. Bizningcha, taqlidlarning hamma ko'rinishlari ham qiziqarli material bo'la oladi.

Tovushiy ramzlar (keyinchalik,TR)ni farqlash va tavsiflash onomatoplarga nisbatan ancha murakkab (Bu haqda quyida batafsil to'xtalamiz). Biz o'z ishimizda TR deganda, mazmuni va fonetik qobig'i orasida muayyan bog'liqlik kuzatilgan birliklarni tushunamiz. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, til egasi o'z ongida kechayotgan nomlash jarayonini tahlil qilmaydi. To'g'rirog'i, tahlilni boshqa yo'nalishda olib boradi. Uning tahlili, aslida, bo'lgandek, uch bosqichli: narsa tushuncha nom emas, balki ikki bosqichli, shuningdek, ters: nom narsa tarzida kechadi.

Qo'yilayotgan muammoning yana bir tomoni bor, modomiki, til belgilar sistemasi ekan, fonema belgimi? Bu savolga javob berish ikki murakkab muammoni yechish bilan bog'liq: fonema belgi bo'lsa, unda ifodalovchi va ifodalanmish bo'lishi shart; fonema belgi bo'lmasa, u til birligi emas. Bu esa barcha til birliklarini ifodalovchidan mahrum qilish demakdir.

Tilshunoslik tarixida, ko'rsatib o'tilganidek, har ikki qarashni ham yoqlovchi yo'nalishlar bo'lgani ma'lum. Aslida tilning belgilar sistemasi sifatida tan olinishi bu muammoni o'z-o'zidan hal etadi:

– fonema agar til birligi deb tan olinsa, unda ifodalovchi va ifodalanmishning mavjudligi shubhasiz;

– agar unda ifodalanmishning mavjudligi rad etilsa, demak, fonema til birligi emas;

– bu holda til belgilar sistemasi emas.

Bu uch mulohazaning eng sodda deduktiv tahlili ham fonemani ikki tomonlama belgi sifatida tan olish zarurligini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek tilshunosligida A.G'ulomov tomonidan fonostilistikaga oid dastlabki ma'lumotlar berilgan (1).

Keyinchalik bu qarashlar E.Qilichev, G.Yaxshiyeva kabilar tomonidan davom ettirildi (2). S.V. Voroningacha ham, undan keyin ham qator olimlar fonosemantika sohasida tadqiqotlar olib bordilar. Bu sohadagi eng diqqatga sazovor tadqiqotlar A.P.Juravlyov, N.A.Pavlyuk tomonlaridan olib borilgan bo'lib, fonosemantik tadqiqlar jarayoniga kompyuter imkoniyatlari ham jalb etilishi bilan o'ziga xosdir (3). Bu sohada maxsus tadqiqotlar olib borilmasa-da, juda ko'p tilshunoslar o'z qiziqishlarini namoyon qilganlar. Masalan, N.D.Arutyunovaning lingvistik referensiyalarga oid tadqiqotida quyidagi fikrni uchratamiz: «Ma'nolarning shakllanishi jarayonida borliq tilga «tazyiq o'tkazadi», unda o'z belgilarini qoldirishga intiladi; referensiya jarayonida til nutqda reallashib borliqqa yo'l izlaydi» (4). Ya'ni, tilda borliqning muayyan belgisi bo'lishi shart. Shunga o'xshash qarashlar V.V.Levitskiy, T.V.Sivyan, M.M.Makovskiy, O.A. Radchenko, I.L.Vaysgerber hamda uning shogirdlari asarlarida ham uchraydi.

Tahlil va natijalar. Fonostilistika – fonetik vositalar – talaffuz ohangi, ton, urg'u, turli tovush o'zgarishlari va hokazolarning individual va funksional uslublarni shakllantirishdagi o'rnini o'rganuvchi fan. Fonosemantika til belgisi tarkibiy qismlarining o'zaro mutanosiblik darajasini o'rganadi. Bu mutanosiblik darajasi o'sha til birligining uslubiy bo'yoqdorligiga, albatta, ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan, bu ikki soha

chambarchas bog‘liq. Biz o‘z ishimizda fonosemantika orqali fonosilistikaga boruvchi tadqiq yo‘nalishini tavsiflamoqchimiz. Til belgisiga berilgan mavjud ta’rif, bizningcha, muayyan to‘ldirishga muhtoj. Ko‘p asrlik munozaralarda muxolif tomonlar argumentlarini qiyoslab aytish mumkinki, til belgisi to‘liq erkin emas. Lisoniy jihatdan: til belgisini inson foydalanuvchi boshqa belgilar bilan tenglashtirib bo‘lmaydi. Inson boshqa barcha belgilarni tilga qiyosan yaratgan. Bu belgilarning kelib chiqishi va tabiati insoniyat uchun yaxshi ma’lum. Ammo til belgisining tug‘ilish jarayoni haqida bizda aniq-tiniq, yagona, hammaga ma’qul qarash – nazariya yo‘q. Boshqa belgilarni inson irodasi ta’sirida o‘zgartirish qiyin emas. Ammo til o‘z ichki-immanent qonuniyatlari asosida taraqqiy qiladi. Shunga ko‘ra, til belgisining ikki tarkibiy qismi borligi tan olinsa-da, ularni bir-biridan ajratib tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Xulosa. Fonosemani, bizningcha, bir nechta tovushlar tizimidan iborat deb tushunish tartibsizlikka olib keladi. Chunki tovushlarning bunday tizim hosil qilish imkoni chek-chegarasiz. Shu bilan birga. Muayyan so‘z fonosemantik tusida shu so‘zda bir nechta tovushlarning yig‘indisi (ya’ni, fonostema) qatnashadi, qolgan qismlar esa bu jarayondan chetda turadi deyish asossizdir (fonostema haqida yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga qarang). So‘zning fonosemantik tusi uning butun fonetik tarkibi bilan belgilanadi. Ushbu fonetik tarkibda yetakchilik qilayotgan fonema va uning kontekstual hamda konsituativ holatini biz fonostema deb ataymiz. Fonostemani bunday baholash uning til tizimidagi mavqeini belgilashni osonlashtiradi: oddiy fonemaning muayyan stilistik-semantik funksiya bajarish uchun xoslangan ko‘rinishidir. Fonosemantik tadqiqotlar olib borish jarayonida taqlidlar va ramzlarni farqlash lozim. Ular fonosemantik tadqiqotlarning asosiy materialidir. Taqlid so‘zlarning har qanday turi (tovushga taqlid, tasvirga taqlid)da fonosemantik motiv kuchli bo‘ladi. Bir leksik-syemantik guruhga kiritilsa-da, fonosyemantik tadqiqotlarga, ko‘pincha, tovushga taqlidlar tortiladi. Bizningcha, taqlidlarning hamma ko‘rinishlari ham qiziqarli material bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Абдураҳмонов Ғ., Рустамов Ҳ. Она тили. 10–11-синфлар учун дарслик. Т., “Ўқитувчи”, 1995,106-бет.

(2). Қиличев Э.Р. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Т., “Ўқитувчи”, 1985, 194-бет; Яхшиева Г. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар. Филол. фанлари номзоди ... дис., Т., 1996, 132-бет.

(3). Журавлёв А.П., Павлюк Н.А. Язык и компьютер. М., “Просвещение”, 1989, с. 42–45; Журавлёв А.П. Звук и смысл. М., “Просвещение”, 1990.

(4). Радченко О.А. Феномен родного языка в концентуальной системе неогумбольдтианства. Радченко О.А. Язык как миросозидание. М., “Комкнига”, 2006.

(5). Неъматов Ҳ.Ғ., Бозоров О. Тил ва нутқ. Т., “Ўқитувчи”, 1995.

(6). Зиндер Л.Р. Общая фонетика. М., “Наука”, 1979.

(7). Иванов Вяч. Вс. Очерки по истории семиотики в СССР. М., “Наука”, 1976.

Kalimbetov Sharapat Maxsutbayevich (Qoraqalpoq davlat universiteti “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” kafedrasi dotsenti),
Najimova Perizad Arslanbaevna (O‘zDJTU “Ingliz tili tarjima nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi)

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA KONSEPTUAL ZIDDIYATLIK TUSHUNCHASI

Annotatsiya. *Maqola konseptual oppozitsiyani kognitiv tilshunoslikning asosiy hodisasi sifatida ko‘rib chiqishga bag‘ishlangan. Mental kategoriyalarning reprezentatsiya shakli sifatida namoyon bo‘luvchi konseptual oppozitsiyalar inson tafakkurining “hayot – o‘lim”, “ezgulik – yovuzlik”, “yorug‘lik – zulmat” kabi fundamental binar tuzilmalarini aks ettiradi. Ishda konseptual oppozitsiyalarni aniqlash va tasniflash bo‘yicha nazariy yondashuvlar, shuningdek, ularning dunyoqarash va dunyoning konseptual manzarasini shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Ingliz va qoraqalpoq tillarida oppozitsiyalar shakllanishining kognitiv mexanizmlari, ularning universalligi va madaniy o‘ziga xosligiga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *konseptual oppozitsiya, kognitiv, konseptual manzara, hayot – o‘lim, inson ongi.*

ПОНЯТИЕ КОНЦЕПТУАЛЬНОЙ ОППОЗИЦИИ В КОГНИТИВНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация. *Статья посвящена рассмотрению концептуальной оппозиции как ключевого явления в когнитивной лингвистике. Концептуальные оппозиции, выступающие формой репрезентации ментальных категорий, отражают фундаментальные бинарные структуры человеческого мышления, такие как «жизнь – смерть», «добро – зло», «свет – тьма». В работе анализируются теоретические подходы к определению и классификации концептуальных оппозиций, а также их роль в формировании мировидения и концептуальной картины мира. Особое внимание уделяется*